

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.76

ABROROV SIROJIDDIN ZUXRIDDIN O'G'LI

**O'ZBEKISTONDA ISLOM KAPITAL BOZORI EKOTIZIMINI
SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: iqtisodiyot fanlari doktori
(DSc), k.i.x. Valiev B.B.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB ISLOM KAPITAL BOZORINING MOHIYATI VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	14
1.1-§ Islom kapital bozorining fundamental asoslari va uning mohiyati.....	14
1.2-§ Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning institutsional asoslari va uni tartibga solish.....	27
1.3-§ Islom kapital bozorida sukukning iqtisodiy kategoriya sifatidagi roliga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	44
1-bob bo‘yicha xulosalar.....	63
II BOB ISLOM KAPITAL BOZORINING MILLIY IQTISODIYOTGA TA’SIRI.....	65
2.1-§ Mamlakatlar iqtisodiyotida islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	65
2.2-§ Fond bozorlarida islom fond indekslarining tahlili.....	84
2.3-§ Islom fond indekslarining qiyosiy ekonometrik tahlili.....	98
2-bob bo‘yicha xulosalar.....	118
III BOB ISLOM KAPITAL BOZORI INSTRUMENTI SIFATIDA SUKUKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI.....	120
3.1-§ Fond bozorida sukuk rivojlanishi holatining umumiyligi tahlili.....	120
3.2-§ Sukuk emissiyasining tarkibiy tuzilishiga ko‘ra tahlili.....	133
3.3-§ Sukuk bozorini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari.....	145
3-bob bo‘yicha xulosalar.....	158

IV BOB O'ZBEKISTONDA ISLOM KAPITAL BOZORI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	160
4.1-§ O'zbekistonda islam kapital bozorini shakllantirishda xorijiy tajribaga asoslangan uslubiy yondashuvlar.....	160
4.2-§ O'zbekistonda islam kapital bozori institut va instrumentlarini joriy qilishning metodologik muammolari.....	172
4.3-§ O'zbekistonda islam kapital bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish metodologiyasi.....	180
4-bob bo'yicha xulosalar.....	194
XULOSA.....	196
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	201
ILOVALAR.....	214

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyasi bugungi kunda yangidan-yangi moliyaviy resurslarga ehtiyojni oshirib bormoqda. So‘nggi yillarda moliya bozorlarida resurs jalb qilishda katta imkoniyatlarni taqdim etuvchi tizim sifatida islom kapital bozori samaradorligi yuqori yo‘nalish bo‘lib taraqqiy etmoqda. Uning instrumentlardan biri hisoblangan sukuk – islom qimmatli qog‘ozlari orqali asr boshidan 2023-yil boshiga qadar jahon iqtisodiyotiga qariyb 1,8 trln. AQSh dollari qiymatida investitsiyalar kiritilgan¹. Mazkur soha joriy qilingan mamlakatlarda jamiyat talabiga muvofiq investitsion vositalarni oshirish, barcha toifadagi investorlar uchun qulay muhit yaratish, investitsion portfelsni diversifikatsiyalash, yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda islom moliyasi aktivlari qiymati 3,9 trln. AQSh dollaridan oshdi². Bundan avvalroq berilgan prognozlarga ko‘ra, 3,5 trln. AQSh dollarlik qiymatga 2024-yili erishilishi kutilayotgan edi. Bu esa, o‘z navbatida, sohaning sezilarli darajada tez o‘sayotganligidan dalolat beradi.

Jahon hamjamiatida islom kapital bozorining fundamental asoslari, moliya bozoridagi vazifasi, o‘rnii va an’anaviy tizimlarga integratsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarda, islom kapital bozorining iqtisodiyotni qo‘sishimcha zaxiralar hisobiga rivojlantirish va turli moliyaviy inqirozlardan himoyalash masalalari ustuvorlik kasb etmoqda. Islom kapital bozorining hajm va geografik jihatdan oshib va kengayib borishi uning moliyaviy tizim sifatida aniq mexanizmini belgilash, shariat kengashi kabi o‘ziga xos institutlarini inobatga olgan holda tartibga solishni standartlashtirish hamda mavjud an’anaviy kapital bozorlariga integratsiya qilish bo‘yicha izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Shuningdek, islom fond indekslarining tashqi shok omillarga bardoshlilik darajasining qiyosiy tahlili yetarli o‘rganilmagan.

¹ IIFM Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, August 2023, 12th edition. p29.

² Islamic Finance Development Report 2022: Embracing change. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv. p8

O‘zbekistonda islom moliyasi, xususan, islom kapital bozoriga qiziqish ortib borayotgan bo‘lsa-da, ekotizim sifatida joriy etilmagan. Uning joriy etilishi kapital bozorining raqobatbardoshligini va kapitallashuvini oshirish, sohaga ilg‘or xalqaro amaliyotni joriy qilish hamda bank tomonidan kreditlashga muqobil bo‘lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda islom kapital bozori ekotizimini joriy etish milliy kapital bozorini yanada rivojlantirish va “10 mlrd. AQSh dollari qiymatidagi mablag‘larning “yashirin iqtisodiyot”dan chiqishida”³ muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son, 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-son Farmonlari, 2023-yil 2-sentabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-291-son Qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.⁴ Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslari va uni takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Islom moliya institutlari uchun

³ Стратегия развития рынка капитала на 2020-2025 годы – основные положения. На основе рекомендаций консультантов ЕБРР и АБР. с5.

⁴ <https://aoofi.com>; <https://www.ifsb.org>; <https://iilm.com>; <https://www.iifm.net>; <https://isdbinstitute.org>; <https://www.cambridge-ifa.net>; <https://www.london.edu>; <https://inceif.edu.my>; <https://www.hbs.edu>; <https://www.izu.edu.tr>; <https://iiau.uz>; <https://cedr.uz>.

buxgalteriya va audit tashkiloti (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, Bahrayn), Davlat islam diniy kengashi (State Islamic Religious Council, Malayziya), Islom moliyaviy xizmatlari Kengashi (Islamic Financial Services Board, Malayziya), Xalqaro islam likvidligini boshqarish korporatsiyasi (The International Islamic Liquidity Management Corporation, Malayziya), Xalqaro islam moliyasi bozori (International Islamic Financial Market, Bahrayn), Islom taraqqiyot banki instituti (The Islamic Development Bank Institute, Saudiya Arabistoni), Kembridj islam moliyasi instituti (Cambridge Institute of Islamic Finance, Buyuk Britaniya), London biznes maktabi (London Business School, Buyuk Britaniya), Islom moliyasi ta’limi xalqaro markazi (INCEIF University, Malayziya), Garvard biznes maktabi (Harvard Business School, AQSh), Istanbul Sabahaddin Zaym universiteti (İstanbul Sabahattin Zaim Üniversitesi, Turkiya), Xalqaro islam akademiyasi (O‘zbekiston), “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslari va uni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan, islom moliyaviy institutlari, qimmatli qog‘ozlari va boshqa shakldagi moliyaviy instrumentlar bo‘yicha shariat standartlari ishlab chiqilgan (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, Malayziya); Sukukning mintaqalar, mamlakatlar, turlari va davrlar kesimidagi tahlili va islom kapital bozorining mamlakatlar bo‘yicha o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilingan (International Islamic Financial Market, Bahrayn); Islom kapital bozorini shakllantirish va uning instrumentlaridan samarali foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Islamic Financial Services Board, Malayziya); Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda islom moliyasi, xususan, islom kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanishga oid izlanishlar olib borilgan (The Islamic Development Bank Institute, Saudiya Arabistoni); Islom kapital bozori orqali aholi farovonligini

oshirish va “yashirin iqtisodiyot”ni kamaytirish bilan bog‘liq tahlillar o‘tkazilgan (INCEIF University, Malayziya).

Jahonda Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: islom kapital bozorining jahon moliya bozoridagi ulushini oshirish maqsadida yangi islom moliya xizmatlari turlarini rivojlantirish; islom fondlari sonini va qamrovini oshirish; islom kapital bozori faoliyatida raqamlı texnologiyalarni takomillashtirish orqali samaradorligini oshirish, islom kapital bozorini mamlakatlarda joriy etish vositasida dualistik moliya tizimlarini tashkil etish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Islom kapital bozori faoliyatini tashkil qilish hamda uning samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik yirik iqtisodchi olimlar M.Taqi Usmoniy, H.Visser, S.Godlevskiy, R.Turk-Aris, L.Veyl, I.Ali, R.Falahiy, M.Zulxibri, Y.Ibrahim, M.Minay, N.Ahmad, S.Davud, Z.Kafeliya, A.Said, R.Grassa, A.Echchabi, H.Abd.aziz, U.Idris, M.Hassan, S.Aliyu, A.Paltrinieri, A.Xan, H.Samaoyi va S.Nechilar⁵ tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan V.Antropov, T.Gafurova, S.Mokina, O.Trofimova, I.A.Zaripov, va I.Bekkin⁶ singari olimlar ilmiy ishlarida islom kapital

⁵ Usmani Muhammad Taqi. “Sukuk and their contemporary applications. (2007)” Translated from the original Arabic by Sheikh Yusuf Talal De Lorenzo, AAOIFI Shari'a Council meeting, Saudi Arabia. 15 p.; Hans Visser. Islamic Finance: Principles and Practice. – Edward Elgar, Cheltenham, UK • Northampton, MA, USA, - 2009. 184 p.; C.J.Godlewski, R.Turk-Ariss & L.Weill. Sukuk vs. conventional bonds: A stock market perspective. Journal of Comparative Economics, 41, 2019 pp 745-761; Mohammed Imad Ali, Ikramur Rahman Falahi. Islamic banking and finance: principles and practices // Marifa Academy Private Limited, 2014. 242 p.; Zulkhibri M. (2015). A synthesis of theoretical and empirical research on sukuk. Borsa Istanbul Review, 15, pp. 237-248; Ibrahim Y., & Minai M.S. (2009). Islamic bonds and the wealth effects: evidence from Malaysia. Investment Management and Financial Innovations, 6(1), pp. 184–191; Ahmad N., Daud S.N., & Kefelia Z. (2012). Economic forces and the sukuk market. Procedia: Social and Behavioral Sciences, 65, pp. 127-133; Said A., & Grassa R. (2013). The determinants of sukuk market development: does macroeconomic factors influence the construction of certain structure of sukuk? Journal of Applied Finance and Banking, 3(5), pp. 251-267; Echchabi A., Abd.aziz H., Idriss U., 2016. Does sukuk financing promote economic growth? An emphasis on the major issuing countries. Turk. J. Islam. Econ.3, pp. 63-73; Hassan M., Aliyu S., Paltrinieri A. & Khan A. (2018). A Review of Islamic Investment Literature. Economic Papers: A journal of applied economics and policy. In Press; Smaoui H., & Nechi S. (2017). Does sukuk market development spur economic growth? Research in International Business and Finance, 41, pp. 136-147.

⁶ Антропов В.В. Исламские финансы в глобальной экономике: современные тенденции и перспективы. Причины появления исламских финансовых институтов // Экономический журнал. 2017. №48. с. 57-77; Гафурова Г.Т. Сукук в системе исламского финансирования // Вестник АГТУ. Экономика. 2011. №2. с. 90-94; Мокина Л.С. Исламские ценные бумаги как источник финансирования инвестиционных проектов и перспективы их размещения на финансовом рынке России // Российское предпринимательство. 2017. Том 18. №22. с. 3429-3446; Трофимова О. Мусульмане и ислам в Западной Европе // Мировая экономика и международные

bozori va islom moliyasi masalalari o‘z aksini topgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olim va tadqiqotchilar X.Xasanov, J.Imamnazarov, A.Tursunov, B.Jo‘raev, M.Sultanov, N.Allaberganova, H.Nusratxujayev va T.Boboqulovlarning⁷ ilmiy ishlarida ham izlanishlar olib borilgan.

Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida islom kapital bozori faoliyati bilan bog‘liq muammolar nazariy jihatlari va uning ishlash mexanizmiga bog‘liq bo‘lib, islom kapital bozori va mamlakat iqtisodiyoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj mavjud. Moliya bozori qulayligini oshirish va aholi pul mablag‘larini jalb etish maqsadida O‘zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini joriy etishga oid izlanishlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazining FZ-5421033210-sonli “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

отношения. 2009. №10. с. 52-62; Зарипов И.А. Малайзия – флагман исламских финансов // Вестник финансового университета. 2016. №4. с. 118-129; Р.И.Беккин. Исламская экономическая модель и современность. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд. дом Марджани, 2010. – 367 с.

⁷ Хасанов X. Аҳлоқий (исломий) молиялаштириш тизими – инновацион молиялаштириш воситаси сифатида (Ўзбекистон ва МДҲ мисолида). “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, 2017 й.; Имамназаров Ж. Ислом молия тизими имкониятларидан Ўзбекистон иқтисодиётида фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. -Т.: ТДИУ, 2023. 70 б.; Tursunov A. Islomiy mikromoliyalashda “Vaqf” xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. -Т.: BFA, 2023. 64 б.; Султанов М. Ўзбекистонда инвестиция фондларини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. -Т.: ТДИУ, 2019. 58 б.; Аллаберганова Н. Ислом кредит институтлари фаолиятининг назарий жиҳатлари. “Молия ва банк иши” электрон илмий журнали. №1, 2019 й. 11-16 б.; Хасанов X., Давлатяров О. Фоиз ставкаси ва инфляция даражаси ўртасидаги боғликларниг исломий молиялаштириш жиҳатидан таҳлили. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов/под общей редакцией. Т.Ахмедова.–Ташкент: IFMR, 2019. сс. 245-252.; Nusrathujuev H. “Raising Islamic finance awareness in Uzbekistan” Islamic finance news 2020 pp17-18.; Boboqulov T. “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida omonat jalb qilish bilan bog‘liq mavjud muammolarni islomiy bank mahsulotlarini joriy etish orqali bartaraf etish”. Logistika va iqtisodiyot 2020 №3-10-17 b.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

islom kapital bozori fundamental asoslarini tahlil qilish orqali nazariy va metodologik yondashuvlarni shakllantirish;

mamlakatlar iqtisodiyotidagi islom kapital bozorining ahamiyatini tahlil qilish;

fond bozorlarida islom fond indekslarini tadqiq qilish orqali ularning tashqi shok omillarga bardoshlilik darajasini aniqlash;

sukuk moliyaviy instrumentning rivojlanish tendensiyasini va joriy holatini tahlil qilish;

islom kapital bozorini shakllantiris va sukuk bozorini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini tadqiq qilish

O‘zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida islom kapital bozorlaridagi instrument va institutlar olingan.

Tadqiqotning predmeti islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiyalash, empirik, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil, ekonometrik tahlil, Hill baholash va OLS log-log regressiya usullaridan foydalananilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning institutsional asosi sifatida markazlashgan respublika va islom moliyasi institutlari shariat kengashlarining zaruriy ahamiyati bozor ishtirokchilarining xulq-atvori jihatidan ilmiy asoslangan;

iqtisodiyotni rivojlanirish uchun mamlakatda shaxsiy qarashlar tufayli foydalanimayotgan va samarasiz foydalanilayotgan moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarga maqsadli yo‘naltirishdagi islom kapital bozorining ahamiyati asoslangan;

islom fond indekslari an'anaviy fond indekslariga nisbatan moliyaviy inqirozlar va pandemiya kabi tashqi shok omillariga bardoshliroq ekanligi aniqlangan;

O'zbekistonga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishda murobaha va ijara tamoyillariga asoslangan sukuklarni chiqarish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

O'zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida sukuk instrumentini muvaffaqiyatli joriy etish va rivojlantirishda hamda uning samaradorligini oshirish maqsadida Islom taraqqiyot banki texnik ko'magini jalb qilish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

islom kapital bozori ekotizimining institutsional asosi sifatida moliya institutlari, tartibga soluvchi tashkilotlar, xalqaro muassasalar, bozor tashkilotchilari va boshqa vositachilarning o'zaro to'ldiruvchilik xususiyatlariga ko'ra bog'liqlik jihatlari ko'rsatib berilgan;

kapital bozorilaridagi islom fond indekslarining tarkibiy tuzilmasi iqtisodiyotning real sektori bilan mutanosiblik darajasi baholangan;

islom qimmatli qog'ozlarni islom moliyasi tamoyillariga muvofiqlik darajasini aniqlash jarayonidagi qat'iy tekshirishga oid xalqaro standartlar doirasidagi me'zonlari tadqiq etilgan va guruhlashtirilgan;

O'zbekistonda islom kapital bozori instrumetnlarini qisqa davrda samarali joriy etish va tartibga solishni nazarda tutuvchi kapital bozori sohasida "tartibga solish qumdoni" maxsus rejimni joriy qilish taklifi berilgan;

O'zbekiston kapital bozorida barcha toifadagi sarmoyadorlar uchun qulaylikni oshirish, investorlar sonini ko'paytirish, mavjud qimmatli qog'ozlar turini diversifikatsiya qilish va raqobatning yangi omillarini yaratish maqsadida O'zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish bosqichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik hisobotlaridan

olinganligi, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, hamda islom kapital bozori ekotizimini joriy etish istiqbollariga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalar kapital bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish, shuningdek, xorijiy investorlar, xo‘jalik sub’ektlari, moliyaviy institutlar va aholining bo‘sh mablag‘larini jalb etish hamda joylashtirish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonun osti hujjatlari, mamlakat Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish mexanizmi bo‘icha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning institutsional asosi sifatida markazlashgan respublika va islom moliyasi institutlari shariat kengashlarining zaruriy ahamiyati bozor ishtirokchilarining xulq-atvori jihatidan ilmiy asoslashga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta’lim muassasalari 70411101 – Islom iqtisodiyoti va moliyasi ta’lim mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan “Mulkni boshqarish va rejalahtirish” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldaggi 314-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi oliy ta’lim muassasalari talabalarida “shariat kengashlari” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va moliya bozoridagi ahamiyati bo‘yicha yanada kengroq nazariy bilim va ko‘nikmalar hosil qilish uchun uslubiy asos bo‘lgan;

iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mamlakatda shaxsiy qarashlar tufayli foydalanilmayotgan va samarasiz foydalanilayotgan moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtiomoiy loyihalarga maqsadli yo‘naltirishdagi islom kapital bozorining ahamiyatiga oid taklifidan Investitsiya institatlari milliy uyushmasining 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Investitsiya institatlari milliy uyushmasining 2024-yil 12-yanvardagi DT-092-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan ilg‘or yondashuvlarni qo‘llash orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish uyushma a’zolari daromadini ko‘paytirish imkonini beradi;

islom fond indekslari an’anaviy fond indekslariga nisbatan moliyaviy inqirozlar va pandemiya kabi tashqi shok omillariga bardoshliroq ekanligiga oid ilmiy xulosasidan Investitsiya institatlari milliy uyushmasining 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Investitsiya institatlari milliy uyushmasining 2024-yil 12-yanvardagi DT-092-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Investitsiya institatlari milliy uyushmasining a’zolari tomonidan islom fond indeksini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan;

O‘zbekistonga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishda murobaha va ijara tamoyillariga asoslangan sukuklarni chiqarish maqsadga muvofiqligiga oid taklifi Investitsiya institatlari milliy uyushmasining faoliyatiga tadbiq etilgan (Investitsiya institatlari milliy uyushmasining 2024-yil 12-yanvardagi DT-092-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi qarz instrumentlari orqali mablag‘ jalb qilmoqchi bo‘lgan tashkilotlarga sukuk chiqarishni taklif etish tizimining yo‘lga qo‘yilishi va bozor jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi;

O‘zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida sukuk instrumentini muvaffaqiyatli joriy etish va rivojlantirishda hamda uning samaradorligini oshirish maqsadida Islom Taraqqiyot Banki texnik ko‘magini jalb qilish taklifi Islom Taraqqiyot Bankining O‘zbekistondagi vakilligi faoliyatiga tadbiq etilgan (Islom

Taraqqiyot Banki O‘zbekistondagi vakilining 2023-yil 22-noyabrdagi FR-UZ/11-22-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy qilinishi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi va Islom Taraqqiyot Banki o‘rtasida shartnoma imzolanishiga xizmat qilgan va jami 220 ming AQSh dollari qiymatida texnik ko‘mak jalb qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 216 betni tashkil etadi.

I bob. ISLOM KAPITAL BOZORINING MOHIYATI VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

§1.1. Islom kapital bozorining fundamental asoslari va uning mohiyati

Bugungi kundagi o‘rganishlar va tadqiqotlardan barchamizga ma’lumki, jahon hamjamiyatida moliya bozorlari tashkiliy jihatdan yuqori darajaga ega bo‘lib doimiy ravishda rivojlanishdagi samaradorligi ortib borayotgan tizim hisoblanadi. Real tovarlar va aktivlar bozorining mahsulotlari ham sekyuritizatsiya⁸ qilinishi natijasida bu aktivlarning narxlari ham moliya bozorlari orqali shakllanib bormoqda. Iqtisodiyotning taraqqiyot tarixiga e’tibor berilsa, moliya bozorlari real tovarlar va xom ashyolar bozoriga nisbatan keyinroq shakllangan bo‘lsa-da, moliya bozori qulayliklari ko‘pligi, samaradorligi yuqoriligi va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi jadallahib borishi ushbu tizimning iqtisodiyotdagi ahamiyati yanada oshib borishining asosiy sabablaridan bo‘lmoqda.

Moliya bozori rivojlanib borishining yana muhim xususiyatlaridan biri bu bo‘sh turgan moliyaviy resurslarni investitsiyaga yo‘naltirish funksiyasidir. Moliya bozori – moliyaviy instrumentlar bo‘yicha talab va taklif funksiyasi hamda ular vositasida jamg‘armalarning investitsiyalarga transformatsiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlar va qulay muhitni ta’minlab beruvchi, faoliyati maxsus iqtisodiy huquqiy axborot mexanizmi bilan ta’minlangan va tartibga solinuvchi murakkab tizim⁹.

Moliya bozori o‘z tamadduni davomida bozor talabiga qarab ko‘plab yangi moliyaviy instrumentlarni taklif etib, ularni rivojlantirib kelgan. XXI asrga kelib, jahoning deyarli barcha mintaqalarida islom iqtisodiyoti, islom moliyasi va islomiy qimmatli qog‘ozlar jadal taraqqiy eta boshladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi past darajada salbiy ta’sir e’tishi unga qiziqishni yanada oshirib yubordi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan aholisining asosiy qismi musulmonlar istiqomat qiladigan mamlakatlar mustaqillikka erishgandan so‘ng neft va gaz resurslarini keng ko‘lamda qazib olib, eksport qila boshladi. Neft narxining oshib

⁸ Sekyuritizatsiya – aktivlarga asoslangan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish orqali moliyalashtirish usuli. Bu orqali nolikvid aktivlar likvidligi yuqori bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga aylantiriladi

⁹ Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar // Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 7-b.